

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2024

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



**Bosh muharrir:**

p.f.d., prof., S.T. Turg'unov

**Mas'ul muharrir:**

PhD., dots., A.A. Rasulov

**Mas'ul muharrir o'rinbosari:**

PhD., dots., O.N. Imomov

## TAHRIR HAY'ATI

<b><u>Fizika-matematika fanlari:</u></b>	akad. S. Zaynobiddinov akad. A. A'zamov f-m.f.d., prof. B. Samatov f-m.f.d., dots. R. Xakimov f-m.f.d., dots. B. Abdulazizov f-m.f.n., dots. A. Xolboyev
<b><u>Biologiya fanlari:</u></b>	akad. K. Tojibayev akad. R. Sobirov b.f.d., prof. A. Batashov b.f.d., prof. N. Abdurahmonov b.f.d., prof. F. Kushanov b.f.d. A. Kuchboyev b.f.d., dots. D. Dexqonov
<b><u>Texnika fanlari:</u></b>	t.f.d., prof. A. Umarov t.f.d., prof. S. Yunusov
<b><u>Tarix fanlari:</u></b>	akad. A. Asqarov s.f.d., prof. T. Fayzullayev s.f.d., prof. N.B. Dexkanov t.f.d, prof. A. Rasulov
<b><u>Falsafa fanlari:</u></b>	f.f.d., prof. M. Ismoilov f.f.d dots. Z. Isaqova f.f.d., G. G'afarova p.f.d., dots. T. Ismoilov PhD. A. Abdullayev
<b><u>Pedagogika fanlari:</u></b>	p.f.d., prof. U. Inoyatov p.f.d., prof. B. Xodjayev p.f.d., prof. O'. Asqarova p.f.n., dots. M. Nishonov p.f.n., dots. A. Sattarov p.f.n., dots. M. Asqarova p.f.n., dots. Sh. Xo'jamberdiyeva p.f.d., dots. S. Abdullayev PhD. D. Sarimsakova PhD. B. Urinov
<b><u>Texnik muharrir:</u></b>	S. Xoshimov
<b><u>Tahririyat manzili:</u></b>	Boburshox ko'chasi, 161-uy

<b><u>Kimyo fanlari:</u></b>	akad. S. Nigmatov k.f.d., prof. Sh. Abdullayev t.f.d., v.b. prof G'. Doliyev k.f.n., dots. T. Sattarov k.f.n., dots. A. Hurmamatov PhD. D.S. Xolmatov.
<b><u>Filologiya fanlari:</u></b>	fil.f.d., prof. N. Uluqov fil.f.d., prof. H. Usmanova PhD. H. Solixo'jayeva PhD. dots. U. Qo'ziyev PhD. H. Sarimsoqov fil.f.d., N. Dosboyeva
<b><u>Qishloq xo'jaligi fanlari:</u></b>	g.f.d., prof. B. Kamalov q-x.f.n., dots. A. Qazaqov
<b><u>Geografiya fanlari:</u></b>	g.f.d., dots. B. Kamalov g.f.d., prof. A. Nigmatov g.f.d., dots. A. Nazarov
<b><u>Iqtisodiyot fanlari:</u></b>	i.f.d., prof. N. Maxmudov i.f.d., prof. O. Odilov
<b><u>Tibbiyot fanlari:</u></b>	b.f.d. G'. Abdullayev tib.f.n., dots. S. Boltaboyev
<b><u>Psixologiya fanlari:</u></b>	p.f.d., prof. Z. Nishanova p.f.n., dots. M. Maxsudova

**Rasmiy web sahifa:**



journal.namdu.uz

**Faks:** (0369)227-07-61

**e-mail:** science@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамДУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 -raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458) ga ega NamDU Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2024-yil 11-apreldagi kengaytirilgan 4-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 4). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.



**Turdiyev Bexruz Sobirovich**

Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Email: b.s.turdiyev@buxdu.uz

### JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILANISHIDA INSON MEZONI

**Annotatsiya:** Jamiyat ideosferasi yangilanishida inson taraqqiyotining roli ijtimoiy falsafaning dolzarb mavzularidan biridir. Ushbu maqolada inson omiliga berilgan e'tibor jamiyat ideosferasining yangilanishiga, avvalo, inson ongi va tafakkuri, uning ma'naviy salohiyati va dunyoqarashidagi o'zgarishlarga olib kelishi asoslangan. Bugun inson va uning manfaatlari ustuvorligi mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasi, davlat dasturlari va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarida o'z ifodasini topganligi misollar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** inson taraqqiyoti, jamiyat ideosferasi, islohot, strategiya, adolat, reyting, demokratiya, konsepsiya, indeks, reyting

**Бехруз Собирович Турдиев**

доцент кафедры Юриспруденции и социально-политических наук

Бухарского государственного университета, д.ф.ф. (PhD)

### РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КРИТЕРИЯ В ОБНОВЛЕНИИ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА

**Аннотация:** Роль человеческого развития в обновлении идеосферы общества – одна из ключевых тем в социальной философии. В данной статье, внимание, уделённое человеческому фактору, базируется на обновлении идеосферы общества, что, прежде всего, приводит к изменениям в сознании и мышлении человека, его духовном потенциале и мировоззрении. На сегодняшний день, приоритет человека и его интересов проявляется в Стратегии развития нашей страны, государственных программах и перспективах развития, основанных на конкретных примерах.

**Ключевые слова:** человеческое развитие, идеология общества, реформа, стратегия, справедливость, демократия, концепция, индекс, рейтинг.

**Bekhruz Sobirovich Turdiyev**

Bukhara State University

Associate Professor of the Department of Jurisprudence and Socio-Political Sciences, (PhD)

### THE ROLE OF THE HUMAN CRITERIA IN THE UPDATE OF SOCIETY'S IDEOSPHERE

**Annotation:** The role of human development in updating the ideosphere of society is one of the key topics in social philosophy. This article focuses on the importance of the human factor in renewing the ideosphere of society, which primarily leads to changes in human consciousness, thinking, spiritual potential, and worldview. Currently, the primacy of the individual and their interests is evident in the Development Strategy of our country, state programs, and development prospects, as illustrated by specific examples.

**Key words:** human development, ideology of society, reform, strategy, justice, democracy, concept, index, rating.

#### Kirish

Jamiyat rivoji yo'lida inson taraqqiyotining asosiy mezonlari, jumladan, inson farovonligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy kamoloti bilan uzviy bog'liq asosiy ko'rsatkichlari ijtimoiy falsafaning tadqiqot obyektlaridan biri sifatida yetakchilik qiladi. Inson taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy, ruhiy kamolotdagi o'zgarish va rivojlanish bilan uyg'unlashuv jamiyat, davlat va xalq farovonligi yuksalishining asosi hisoblanadi. Shu sababli jahondagi rivojlangan demokratik davlatlar jamiyat ideosferasidagi o'zgarishlar jarayonida inson

ko'rsatkichlariga katta e'tibor berilib, bunda jamiyat madaniy salohiyati va ma'naviyatini ko'tarish yo'lidan borganini guvohi bo'lamiz.

Jamiyat ideosferasidagi yangilanish xalq, millat va shaxsning faolligi, iqtisodiy barqarorligi, farovon hayoti, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va yuksalishiga turtki bo'ladi. Agar mustaqillik yillaridagi taraqqiyot va yuksalish yo'limizni sarhisob qiladigan bo'lsak, "islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" g'oyasida dialektik uyg'unlikni ko'ramiz. Bunda mamlakatimizdagi barcha islohotlar markazida inson va uning manfaatlari

qo'yilganligi, unga barcha o'zgarishlarning mezonini sifatida qaralishi, barcha yangilanishlar inson uchun, unga munosib hayot tarzini yaratib berish borasida olib borilayotganligining guvohi bo'lamiz.

#### **Adabiyotlar tahlili**

Mamlakatimizda jamiyat ideosferasi o'zgarishi va inson taraqqiyotining o'zaro dialektik aloqadorligini ochib berishga doir qarashlar M. Quronov, N. Jo'rayev, Q. Nazarov, I. Ergashev, N. Shermuhamedova, A. Erkayev, S. Otamurotovlarning izlanishlarida ishlarida kuzatiladi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot olib borish davomida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

#### **Tahlillar va natijalar**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jamiyat hayotining barcha jabhalari avvalo, inson omili bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlab, "Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug' bo'lgan diyor – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo'ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz" [1], -degan konseptual prinsipni ilgari suradilar. Bu prinsip jamiyat hayotini yuqori bosqichga chiqarishda, avvalo, yurtimizda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishni, xalqimiz turmush farovonligi va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vazifasini qo'yadi. Boshqacha aytganda, Shavkat Mirziyoyevning inson omilini yuksaltirish, insonning ma'naviy va jismoniy shakllanishi davlat va jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini belgilab bergani bejiz emas. Bugun respublikamizdagi barcha hududlar qiyofasining o'zgarib borayotganligi, ayniqsa, chekka hududlar aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratish maqsadida bunyod etilayotgan namunaviy uy-joylar va infratuzilmalarni tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson manfaatlarini barcha narsadan ustun ekanligini ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yuqoridagi fikrining tasdig'i sifatida O'zbekiston Jahon bankining Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha Loyhasiga Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchilar qatoridan a'zo bo'lib kirganligi misolida ko'rishimiz mumkin.

Jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar jarayonida inson taraqqiyoti omili masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib, uni hech qachon ikkinchi darajaga surib bo'lmaydi. Demak, jamiyatni jadallashtiruvchi boshqa omillar singari jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar dinamikasida inson mezonini ham jamiyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zero, jamiyat ideosferasida inson mezonini inobatga olinmagan joyda yuksak taraqqiyotga bo'lmaydi, moddiy olam va undan foydalanish madaniyati yuqori darajada bo'lmaydi. Inson mezonini yuqori bo'lganda, kelajakni oldindan ko'rish, qiyinchiliklarni yengishga, mushkul vaziyatlarda ham

yuksak strategik maqsadlarni oldiga qo'yib, ularga ishonch bilan ilgarilab borishga qodir bo'ladi. Inson taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlarning yuqoriligi insonlarni jamiyat odob-axloq me'yorlari asosida yashash va faoliyat ko'rsatishiga, insonrarvarlik, baxt, ijtimoiy adolat, umuminsoniylik g'oyalari va prinsiplariga rioya etilishiga da'vat etadi.

Jamiyat ideosferasidagi ijobiy o'zgarishlar faqatgina bir inson uchun emas, balki butun insoniyat, xalq va millat uchun ham, jamiyat taraqqiyoti uchun ham o'ta muhim va dolzarbdur. Jamiyat jamiyat ideosferasidagi o'zgarishlar insonsiz bo'lmaganidek, ma'nadan yetuk, axloqan pok va barkamol avlodlarsiz taraqqiy etgan mamlakat ham bo'lmaydi.

Inson taraqqiyoti davlat va jamiyat ideosferasidagi o'zgarish jarayonlari bilan uzviy aloqadordir. Inson taraqqiyoti millat, jamiyat va davlat yuksalishining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy shart-sharoit va istiqbolli rejalar asosida shakllanadi hamda amalga oshiriladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida qayd etganidek: "Har bir masalani ma'rifat asosida chuqur o'ylab, xalqqa hurmat bilan, takror va takror aytaman, odamlar fikrini inobatga olib, faqat qonun va adolat mezoniga tayangan holda hal etsak, el-yurtimiz bizdan albatta rozi bo'ladi. Bugun zamon o'zgardi. Endi hammamiz erkinlik, ochiqlik, oshkoralik sharoitida ishlashga o'rganishimiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar, dunyo hamjamiyati shunday yashamoqda" [2].

Shunday ekan, davlat va jamiyat taraqqiyoti, insonni ma'naviy taraqqiyotga erishishiga asos bo'ladi. Inson dunyoqarashi, axloq-odobi, ma'naviy olamining shakllanishi, uning hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarga, ijtimoiy hayot xarakteri va islohotlariga aloqadordir. Demak, insonning shaxs sifatida shakllanishi, o'zini erkin namoyon etishi, ma'naviy yuksalishi, iste'dod va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun jamiyat barcha sohalaridagi islohot va yangilanishlarda inson omili ustuvorligiga amalda alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Dastlab, inson taraqqiyoti konsepsiyasi Hindistonlik olim Amartya Sen va pokistonlik tadqiqotchi Mahbub-ul Haq tomonidan 1990-yilda olib borilgan izlanishlar natijasida shakllangan. Ular inson taraqqiyotida sog'liqni saqlash, ta'lim darajasini va iqtisodiy rivojlanishning ahamiyatini o'rganishgan [3]. Ular insonning kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan mezonlarni ilmiy muomalaga kiritishgan.

Hozirgi kunda inson taraqqiyoti masalalari bo'yicha jahondagi BMT taraqqiyot dasturi, YUNESKO, AYSESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi

xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin.

BMTning Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)dan yoki Global maqsadlardan tashkil topgan bo'lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo'nalishlarini belgilab beruvchi dastur hisoblanib, unda dunyo mamlakatlarining yetakchilarini qashshoqlikka – dunyoning barcha nuqtalarida, batamom – barham berishni nazarda tutadi [4]. Bularning barchasi 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta BRM va ulardan kelib chiqqan 169 vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan (1-jadval).



1-rasm. Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror Rivojlanish Maqsadlari.

Butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishni ko'zlagan yuqoridagi global maqsadlar yer yuzidagi qashshoqlikka batamom barham berish, to'liq gender tengligiga erishish, sog'liqni saqlash sohasini yangi sifat bosqichiga o'tkazish, har bir bolaning maktab ta'limini olish imkoniyatini ta'minlab, dunyoni barqaror taraqqiyot yo'lida yo'naltirishni o'z oldiga qo'yimoqda. Ushbu maqsadlar 2030 yilgacha o'z yechimini topib, inson taraqqiyotiga xizmat qilishidan katta umid qilinmoqda. Yurtimiz ham bu global jarayonlardan chetda emas. Jumladan, O'zbekiston 2015-yil 25-sentyabrda "Barqaror Rivojlanish Maqsadlari" xalqaro shartnomasiga dunyoning 193 mamlakatlaridan biri sifatida qo'shildi [5].

Bugun mamlakatimizda jamiyat ideosferasini yangilash maqsadida inson taraqqiyoti sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Barqaror Rivojlanish maqsadlariga to'la mos kelib, xorijiy ekspertlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida nazarda tutilgan maqsadlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir. Shuningdek, Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasining asosiy vazifalaridan biri sifatida O'zbekistonni 2030 yilgacha dunyodagi 50 ta rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi belgilanganligi ham BRM va demokratik islohotlarimizning aloqadorligidan dalolat beradi. Zero, bu maqsadlar davlatimiz rivojiga, uning yuksalish yo'lida keng va ulkan imkoniyatlar eshigini

ochib, xalqimiz farovonligi va yurtimiz barqarorligi yo'lida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un bo'lgan Taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq qabul qilinayotgan Davlat dasturlari, ulardan kelib chiqib hayotga tadbiiq etilayotgan qonun va boshqa normativ hujjatlar inson farovonligini ta'minlashni nazarda tutmoqda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida ta'kidlaganidek: "Inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlarimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlariga to'la hamohangdir" [6].

Shu nuqtayi nazardan, Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 21- sentyabrdagi "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining 2020-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasini tuzish to'g'risida"[7]gi qo'shma qarori mamlakatimizda 2030-yilga qadar yuqorida keltirilgan keng ko'lamlil maqsadlarga uyg'unligini tasdiqlovchi muhim strategik islohotlardandir.

Mazkur hujjatlar asosida barqaror rivojlanishimizning 2030 yilgacha bo'lgan strategik maqsadi va vazifalari tasdiqlangan. Ularni amalga oshirish bo'yicha O'zbekistonda Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilib, u o'z faoliyatini olib bormoqda. Shuningdek, bugun yurtimizda BMTning faoliyat yuritayotgan vakolatxonalari mutaxassislari ham ushbu dasturning yurtimiz ma'naviy yangilanishlar jarayonida inson taraqqiyoti mezonlari uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid konsepsiyasi, butun dunyoda inson manfaatlari ehtiyojlarini inobatga olgan holda uzviy bog'langan inson salomatligi, uning savodxonlik darajasi, ekologik xavfsiz, iqtisodiy farovon, ijtimoiy muhofazalangan va institutsional birlashgan hayot tarzini shakllantirishni qamragan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan.

"Inson taraqqiyoti" mezonini baholashda, insoniyat turmush darajasining yuqoriroq darajasi, ya'ni, uning salomatligi va uzoq umr ko'rishi, moddiy farovonligi, ta'lim sifati, ma'naviy qoniqish hissi, uning xavfsizligi, madaniy hordiq tushunchalarini qamrab oladi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining jahonda qo'llanilishi jarayonida har bir mamlakatda inson taraqqiyoti darajasini belgilovchi va bu ko'rsatkichlarni boshqa mamlakatlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtiruvchi indikatorlar mavjud.

Asosiy indikator “Inson taraqqiyoti indeksi” (Human Development Index – HDI) ishlab chiqilgan. “Inson taraqqiyoti indeksi” mamlakatda inson omilini uch yoʻnalish asosida baholaydi:

**Birinchi**dan, inson salomatligi va uning uzoq umr koʻrish (umr davomiyligi) koʻrsatkichi;

**Ikkinchi**dan, taʼlim sifati va uning darajasi (taʼlim olish davomiyligi) koʻrsatkichi;

**Uchinchi**dan, insonning munosib va farovon hayot kechirish darajasi (aholi jon boshiga yalri milliy daromad) koʻrsatkichi.

Tadqiqot davomida aniqlandiki, mamlakatimizda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar va vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2030-yilgacha Oʻzbekistonda oʻta qashshoqlikni tugatish, kam taʼminlangan aholi sonini ikki baravarga kamaytirish, sogʻlom turmush tarzini taʼminlash, kasalliklar tufayli bevaqt roʻy beradigan oʻlim sonini 30 foizga qisqartirish, 2025-yilgacha yoʻl-transpord hodalari sonini ikki baravarga kamaytirish, mamlakatda sifatli taʼlimni taʼminlash, bunda esa, oʻqituvchilar sonini koʻraytirish masalalari rejalashtirilgan. Amalga

oshirilayotgan innovatsion islohotlar jarayonida inson taraqqiyoti indeksining yuqori boʻlishi uchun maʼnaviy yangilanishlar strategiyasida inson taraqqiyotiga xizmat qiluvchi barcha mezon va koʻrsatkichlarni safarbar etish zarurligini koʻrsatadi. Zero, inson taraqqiyoti boʻyicha yuqori koʻrsatkichlarga erishish tom maʼnoda mamlakatning har tomonlama yetukligidan dalolat beradi.

2024-yil 13-martdagi BMT Taraqqiyot dasturining “Human Development Report 2023/2024” hisobotida Oʻzbekiston 193 ta davlat ichida 106-oʻrinni egalladi [8]. Bu indeks koʻrsatkichlarida Oʻzbekiston Inson taraqqiyoti boʻyicha yuqori rivojlangan davlatlar qatoridan joy olmagan boʻlsa-da, jamiyat ideosferasidagi ijobiy yangilanishlar pirovardida rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishni oʻz maqsadiga aylantirishi zarur. Bunga erishish maqsadida davlatimiz tomonidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish va roʻyobga chiqarish maqsadida koʻrlab strategik islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularidan koʻzlangan asosiy maqsad esa, Oʻzbekistonda Inson taraqqiyoti indeksi reytingini 2030 yilga qadar ushbu reytingda 106-oʻrindan 40-oʻringa, yaʼni 66 pogʻonaga koʻtarilish nazarda tutilmoqda (2-jadval).

Inson taraqqiyoti indeksidagi oʻrni	Inson taraqqiyoti Indeksi (HDI)	Oʻrtacha umr	Taʼlim olgan yillari	Oʻrtacha talim olgan yili	Yalri milliy mahsulot (YAMM) kishi boshiga	YAMMning kishi boshiga toʻgʻri kelishi boʻyicha oʻrindan inson taraqqiyoti boʻyicha oʻrnini ayirgandagi farq	Inson taraqqiyoti boʻyicha oʻrni
	Qiymati	(yil)	(yil)	(yil)	(2017 RRR \$)	2022	2021
	2022	2022	2022	2022	2022		
<b>106-oʻrin Oʻzbekiston</b>	0.727	71.7	12.0	11.9	8,056	16	105

2-rasm. 2022-yil inson taraqqiyoti indeksi va uning tarkibiy qismlari

Ushbu jadvaldagi koʻrsatkichlardan shuni taʼkidlash lozimki, ushbu strategik maqsadga erishish uchun mamlakatimizda keyingi 10 yil ichida oʻrtacha umr davomiyligi kamida 3,3 yilga uzayishi (71,7 yoshdan 75 yoshgacha), shuningdek, yalpi milliy daromad esa kamida 4 marta oʻsishi nazarda tutilgan.

Jamiyat ideosferasi oʻzgarishi jarayonida inson taraqqiyoti indeksining asosida faqat oddiy iqtisodiy mezonlar emas, balki, avvalo, inson omili turadi. Ushbu taraqqiyot mezonining zamirida inson mezoni ustuvorligiga erishish, uning jamiyat hayotida umum-eʼtirof etilgan qadriyatlarga mos keladigan tabiiy, maʼnaviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish, insonlarning yanada yuqori turmush darajasini taʼminlashdan iboratdir.

Bugun mamlakatimiz inson omili, uning huquqlarini roʻyobga chiqarish borasida 70 dan ortiq

xalqaro meʼyoriy hujjatlar, jumladan, BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta Fakultativ protokoliga qoʻshilgan. Bu xalqaro hujjatlarning bajarilishi yuzasidan milliy maʼruzalar BMTning Inson huquqlari boʻyicha kengashi va shartnomaviy qoʻmitalariga doimiy ravishda taqdim etib borilmoqda. Oʻtgan davr mobaynida inson huquqlari boʻyicha muhim xalqaro-huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 4 ta konvensiyasi, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining 3 ta shartnomasi va boshqa bir qator xalqaro hujjatlar tasdiqlandi [9].

Bugun Oʻzbekistonni jahon reytinglarida inson koʻrsatkichlari doirasida turli yoʻnalishlardagi oʻrnini quyidagi jadvalda koʻrishimiz mumkin:

Indekslar nomlanishi	Joriy holat	Yil
Barqaror taraqqiyot maqsadlari indeksi	69-o'rin	2023
Inson taraqqiyoti indeksi	106-o'rin	2022
Jahon oziq-ovqat xavfsizligi indeksi	73-o'rin	2022
Ijtimoiy rivojlanish indeksi	81-o'rin	2024
Jahon tinchliksevarlik reytingi	86-o'rin	2023
Jahon matbuot erkinligi indeksi	137-o'rin	2023
Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi	69-o'rin	2022
Aholi soni bo'yicha	43-o'rin	2023
Ta'lim tizimining ta'sirini o'lchash va baholash bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasida	72-o'rin	2021
Qonun ustuvorligi indeksi	78-o'rin	2023
Ekologik samaradorlik indeksi	107-o'rin	2022
Korrupsiyani qabul qilish indeksi (davlatda korrupsiya darajasi);	121-o'rin	2023
Iqtisodiy erkinlik indeksi	117-o'rin	2023
Butunjahon baxt indeksi	47-o'rin	2023
Dunyoning eng xavfsiz mamlakati	38-o'rin	2023

**3-rasm.** O'zbekiston jahon reytinglarida inson ko'rsatkichlari

### Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning eng ulkan boyligi bu inson va uning manfaatlarining ustuvorligidir. Uni amalga oshirishda esa, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli strategik islohotlar zamirida aholining turmush darajasini yuksaltirish, har bir vatandoshimizning farovon hayot kechirishini ta'minlash, ularning baxtli yashashiga barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadi ustuvordir. Shu ma'noda, mamlakatimizda taraqqiyot strategiyasi doirasida yuz berayotgan yangilanishlar jarayoni inson manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bu borada kelajak uchun xizmat qiladigan qator muhim strategik chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli olib borilishi O'zbekistonda inson taraqqiyoti indeksida ko'zlangan darajaga ko'tarilishini kafolatlaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar shiddati ushbu maqsadimizning real voqelikka aylanishiga safarbar etiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatida, Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" [10] degan tamoyil ustuvor ekanligini barchamizni anglashimizga da'vat etadi. Bu jarayonda inson taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi degan muhim g'oya yotadi. U jamiyat ideosferasini belgilovchi muhim mezon va ko'rsatkichdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // "Халқ сўзи" газетаси, 2022 йил 21 декабрь, № 272 (8334).
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2020. –Б.354.
3. Amartya Sen. Identity & Violence: The Illusion of Destiny (Issues of Our Time). W.W. Norton & Company, New York, 2007. –240 p.; Mahbub ul Haq. Reflections on Human Development. Second edition. – England, Oxford: Oxford university press, 1999. –324 p.
4. Barqaror rivojlanish maqsadlari //http://www.un.uz/ozb/pages/display/sdgs.
5. Саидова Л. Ўзбекистонда барқарор ривожланиш мақсадларининг бажарилиши ва таълим соҳасининг истиқболлари //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. –Тошкент: 2018. – №1. –Б.19.
6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолитимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б.21.
7. "Ўзбекистон Республикасини Барқарор ривожлантириш соҳасидаги миллий мақсадлар ва вазифаларнинг 2030-йилгача бўлган даврда амалга оширилишини назорат қилиш бўйича парламент комиссиясини тузиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати кенгашининг 2020-йил 27-февралдаги қўшма қарори //https://lex.uz/docs/-4773598.
8. Human Development Report 2021/2022. – New York: NY 10017 USA, 2022. –P.273.
9. Inson huquqlarini hurmat qilish – jamiyatimizning uzviy xususiyati //http://uza.uz/uz/society/inson-huquqlarini-hurmat-qilish-jamiyatimizning-uzviy-xususi-09-12-2019.
10. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: Тасвир, 2020. –Б.41.
11. Sobirovich T. B. The implementation of human indicator reforms in Uzbekistan //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 197-202.
12. Sobirovich T. B. The criterion of human indicators in development and renewals in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2020. – Т. 6. – №. 8. – С. 509-511.

J.Shakarov.....	
<b>Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.</b>	
K.Kamolov.....	304
<b>Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy normalarning ahamiyati.</b>	
S.Berdikulova.....	307
<b>Sharqona boshqaruv va milliy o'zlikni anglash falsafasi.</b>	
S.Usmonov.....	311
<b>Falsafiy antropologiya va aksiologiyada inson qadri muammosi.</b>	
J.Shodiyev.....	315
<b>Jamiyat ideosferasi yangilanishida inson mezon.</b>	
B.Turdiyev.....	320
<b>O'zbekistonda shaxs befarqligini bartarf etishda vatanparvarlik tarbiyasining roli.</b>	
U.Kenjayeve.....	324
<b>Yangi O'zbekistonda yoshlarni barkamollik ruhida tarbiyalashda jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurashish tamoyili.</b>	
G.Berdiyeva.....	328
<b>Jadid ma'rifatchiligining ijtimoiy-falsafiy rivojida Abdulla Avloniyning xizmatlari.</b>	
B.Bahronov.....	332
<b>Ibn Sinoning hayoti va ma'naviy merosining falsafiy tahlili.</b>	
Sh.Nurova.....	336
<b>Tasavvuf durlarining barhayot rashhalari.</b>	
G.Qamariddinova.....	340
<b>Bugungi kun muammosi ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik.</b>	
A.Lutfullayev.....	343
<b>Xojagon-Naqshbandiya ta'limoti shukronalik asosi.</b>	
Z.Kendjayeva.....	347
<b>Yangi o'zbekistonda oav iqtisodiy va marketing nazariyalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili.</b>	
A.Rasulov.....	351
<b>Islomiy qadriyatlarning falsafiy tahlili</b>	
A.Abdullayev.....	355
<b>Qadimgi Yunon mutafakkirlarining ta'limotlarida ruh masalasi borasidagi yondashuvlarning falsafiy tahlili.</b>	
A.Alijanov.....	359
<b>Islom ta'limotida axloq tamoyillari.</b>	
D.Sobirov.....	368
<b>"Dunyoviylik" va "diniylik" tushunchalari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni.</b>	
X.Doniyorov.....	373
<b>Adabiyot-inson ma'naviy kamolotining asosi.</b>	
E.G'apparov, J.Madraximov.....	377
<b>Yoshlarda altruistik fazilatlarni rivojlantirishning ijtimoiy- falsafiy aspektlari.</b>	
A.Egamberdiyeva.....	380
<b>Oilada yoshlarning xulq-atvorini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy imperativlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.</b>	
N.Egamberdiyeva.....	383
<b>Globalashib borayotgan dunyoda milliy o'zlikni shakllantirishda ta'limning o'rni.</b>	
B.Tillayev.....	387
<b>Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etishning imkoniyatlari va ahamiyati.</b>	
K.Ismadiyorov.....	392
<b>O'zbek xaligi etnosport turlarining axloqiy va estetik tahlili.</b>	
U.Mamarasulov.....	395
<b>Yoshlar o'rtasida ma'naviy qadriyatlarni tushunish va vorislikdagi gender farqlari.</b>	
T.Ismoilov, Sh.Sharobiddinov.....	399
<b>Axloqiy qadriyatlar shakllanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari.</b>	
A.Nasimov.....	402